

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-3/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош мұхаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош мұхаррир ўринбосари:

Хасанов Шодлик Бекпұлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир ҳайати:

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.
Абдухалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хүшнұт, ф.ф.н., проф.
Бобожонова Сайёра Хүшнұдовна, б.ф.н., доц.
Бекчанов Даврон Жұманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чұтбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаманазаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражсабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Ибрагимов Баҳтиёр Тұлғанович, к.ф.д., акад.
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманиәзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арапбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc
Курбанбаев Илҳом Жұманазарович, б.ф.д., проф.
Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф.-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баҳодирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сироғиддин Зайнинеевич, ф.-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Сайдарифовна, б.ф.д.
Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.*

*Раззақова Сурайә Рассоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.
Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
Рахимова Гүзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.
Рұзметов Баҳтияр, и.ф.д., проф.
Рұзметов Дишиод Рұзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.
Садуллаев Азимбой, ф.-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
Сирожсов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Собитов Ылмасбай Тоҗаҳмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Сотипов Гойинназар, қ/х.ф.д., проф.
Тоҗибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д.,
акад.
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Баҳтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чұпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Үразбоев Гайрат Үразалиевич, ф.-м.ф.д.
Үразбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажисева Мақсада Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпұлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайберганова Дурдана Сидиқовна, ф.ф.д.
Худойберганов Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/4 (112), Хоразм
Маъмун академияси, 2024 й. – 278 б. – Босма нашрнинг электрон варианти -
<http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм
Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

| | |
|---|-----|
| Abdurakhmanova Z.Yu. The similarities and contrasts between legal words in uzbek and chinese languages | 6 |
| Abduvahabova M.A. Ingliz va o'zbek folklor diskursida genderlikning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari | 9 |
| Absamatova G.B. Surdo tarjima sinxron tarjimaning noverbal shakli sifatida | 13 |
| Aminova N.I. Shukur Xolmirzayevning "Ko'k dengiz" hikoyasida inson ma'naviy dunyosi tahlili | 16 |
| Ataboyev I. Ta'na-dashnom nutq strategiyasi muvaffaqiyatining ekstralingvistik shartlari | 19 |
| Bakayeva M.K., Astanova H.Z. The artistic modeling of personality in dreiser's works: capturing motives and assessing characters | 23 |
| Bazarova X.E. Jamol Kamol she'riyatida so'z jilosi | 29 |
| Bekova N., Achilova D.F. Abdulqodir Karomatullo ibn Ne'matullo Sabboq Buxoriy hayoti va adabiy merosi haqida | 32 |
| Boymatova D.B. Maqollarda muqobilsiz leksikaning ishlatalishi | 35 |
| Erkinov S.E., Saidova M.A. Unlocking global communication: the art and impact of simultaneous translation | 37 |
| Fayziyeva A.A., Raximova S.I. Ingliz tiliga xos konseptual metaforalar tahlili | 40 |
| Gadoeva M.I., Chullieva M. The old man and the sea, the battle of life for all human kind | 42 |
| Gadoeva M.I., Ibragimova M. Linguocultural analysis of imperative mood in uzbek and english | 45 |
| Gadoeva M.I., Mirzaeva M.Z. Expressing desire through lexical items in english and uzbek languages | 47 |
| Ismailov I.O. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida quyosh timsoli | 50 |
| Jo'rayev Sh.B. Tilshunoslikda o'zlashmalarning tasniflanishi | 52 |
| Karimova Sh. Modernizm yo'lidagi izlanishlar | 55 |
| Khayatova Z.M. Unveiling the language secrets: paraphrasing uzbek texts with software | 60 |
| Khodjaeva D.I., Ergasheva M.B. About the branch of onomastics that studies celestial objects | 63 |
| Kobilova N.S. Common features of a good language learner | 65 |
| Madraximova I.B. Shavkat Rahmon she'riyatida tun xronotopi | 68 |
| Mamarajabova I.F. "Vaqt" konseptini ifodalovchi birliklarning xususiyatlari | 71 |
| Maxsudova N.A. Konseptlarning leksikografik tavsifining o'ziga xos xususiyatlari | 73 |
| Mirzaboyeva N.M. Nemis va o'zbek maqollarida ismlar | 78 |
| Muhammadjonova G., Farhodjonova Sh. Badiiy adabiyotda daraxt timsoli va uning g'oyaviy-falsafiy talqini | 81 |
| Muqimova Z.R. Tabiat hodisalarini atovchi nomlarning lingvomadaniy xususiyati | 83 |
| Muratova G. G'afur G'ulom hikoyalarida qahramon xarakteri tasviridagi rang-baranglik | 87 |
| Murodjonova L.F. The ratio of non-verbal and verbal paralinguistic tools used in speech activity | 90 |
| Muxtoraliyev B.I. Anvar Obidjonning badiiy mahorati | 93 |
| Navruzova N.X. The position of connotative meaning in the semantic structure of a word | 96 |
| Niyazova M.X., Tuxtayeva M.A. Tog'ay Murodning asar personajlari nutqida maqol qo'llash mahorati | 99 |
| Norboyev O'S. "Asil va Karam" dostonining shakllanishidagi ilk manbalar va uning yozuvga ko'chishi | 102 |
| Norboyev O'S. "Asil va Karam" dostonining og'zaki versiyalari | 105 |
| Nuriddinova N.B. Poetic features of Stephen King's works | 107 |
| Ochilova H.A. So'roq gap va uning turlari haqida | 111 |
| Oripova G.M. Abduvali Qutbiddinning qofiya qo'llash san'ati | 115 |

| | |
|--|-----|
| Oripova L. Qashqadaryo adabiy muhiti rivojida Abdulla Oripov ijod matabining tutgan o'rni | 118 |
| Pirnazarova D. Metaforaning nazariy asosi va uning she'riy matnda ifodalanishi | 120 |
| Qahramonova S. Bir va ko'p ma'noli "kamsitish" semali so'zlar tavsifi | 122 |
| Qobilova M.M. O'zbek tilining izohli lug'atlarida sotsil semali leksemalarning genetik-etimologik tavsifi | 125 |
| Qobilova N.S., Hojiyeva M.T. Nutqiy aktlarning namoyon bo`lish usullari | 127 |
| Rakhmonova M.Z. The impact of phonological working memory in sentence processing in adults | 130 |
| Raxmatova D.N. O'zbek tili taraqqiyotida yangi davr | 132 |
| Raxmatova O.K. Zamonaviy rus va o'zbek tilini qyoslashda lingvopragmatik tahlil o'tkazish masalalari | 136 |
| Safoyeva S.N. Diskursiv markerlar: saxiylik va tasdiqlash tamoyillari | 138 |
| Saidkodirova D.S. The peculiar structure of semantic theory in linguistics | 141 |
| Saidkodirova D.S. Pragmatics among linguistic disciplines: problems of definition and classification | 144 |
| Saidova M.U., Axrorova M.X. Og`zaki diskursda uchraydigan muammolar va ularning tahlili | 146 |
| Salikhova M.B., Akhmadalieva Kh.A. Status of semi-affixes in english | 149 |
| Saydalieva A.E. Exploring aesthetic functions of irony in literature | 152 |
| Saydalieva A.E. Sociological and psychological aspects of irony | 154 |
| Saydivaliyeva B.S. Ingliz va o'zbek matbuot matnlarida evfemizmlar tahlili | 156 |
| Shadiyeva D. Bir g'azalda she'riy san'atlar jilvasi | 159 |
| Shavkatov Sh.Sh. O'zbek tilshunosligida fe'lni fe'lga bog'lovchi vositalarning fe'l valentligidagi o'rni | 162 |
| Shukurov O.U. Milliy nomlash an'anasi va neym neologizmlar | 165 |
| Soberova M.S. Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar"qissasida ma'rifat masalalari talqini | 168 |
| Soyipov S.N. "Ravzat ush-shuhado" asarida shoir tili va badiiy mahorat masalalari | 171 |
| Saidova Z.X. Ruhiy jarayonlar va shaxs xususiyatlар frazeologik birliklarning leksik qatlam xususiyatlari | 175 |
| Soleyeva M.R. Yapon xalq maqollarining tarjimasi tadqiqot obyekti sifatida | 178 |
| Temirova K.B. Ichimlikni nomlovchi terminlar va semantik muvofiqlik | 182 |
| Tilovova G.R. Ona tili faniga oid atamalar o'quv izohli lug'atlari yaratishning lingvistik asoslari | 186 |
| Tosheva N.Sh. Tush va uning badiiy asar syujetidagi roli | 189 |
| Tukbayeva M.B. Linguistic units representing the category of state in non - related languages | 192 |
| Turg'unova F. Gazeta sarlavhalarining ko'p funktsionalligi | 196 |
| Tursunova M.V. Julian Barnsning "Angliya, angliya" asarida postmodern satirik roman unsurlari | 199 |
| Umurova X.H. National clothes and their linguistic features | 203 |
| Vaxidova F.S. Ingliz va o'zbek tillari soha terminlarining uyali tasniflari va semantik maydoni | 205 |
| Xamdamova X. Xalq dostonlarida harakat va holatni bildiruvchi so'zlardagi ko'pma'nolilik hodisasi haqida | 207 |
| Xiloliddinova F.R. Shekspir dramalarida olam va odam talqini | 210 |
| Xolbekova M.S. Tilshunoslikda teonim markazi tushunchasi haqida ayrim mulohazalar | 213 |
| Zokirova D.B. Methodology of cognitive stylistics | 216 |
| Абдурахмонова М.А. Ҳозирги француз тилида модал сўз ва ибораларнинг асосий маънолари ва уларнинг умумий ривожининг характерли жиҳатлари | 218 |
| Атаназарова Ш.Б. Реклама матнининг умумий тавсифи: тадқиқи ва тарихи | 221 |

a wide collar and is joined by a braid near the skirt in a long bandage (sleeve), narrowing from the shoulder downwards. The female face is blocked by a chachwon. Avra-lined kilib is sewn. Avrasi are sewn from velvet kimkhob, banoras, olacha and other fabrics, embroidered on the edges, decorated with embroidered pieces, made of lining chit, satin, and adipized from purple, pink or cedar Shui on the edges. The two sides of the Parangi (instead of a pocket) are chatted with 2 Jaws falling upright (2-5 cm long), the tip of the jaws being hatched, sometimes with bells hanging. Paranji's predecessor, faraji, was a light broad top dress for both men and women. It appeared in Ancient Egypt and spread to other Eastern countries. In Central Asia, in the 16th century, the upper dress of the people of science was considered. From the 16th century, a woman had a cloak hiding from prying eyes, long sleeves became part of the decoration. The closure of Paranji corresponded to Islamic Sharia. In the process of social change in the 20th century (especially due to the "offensive" movement that began in the 1930s and others), paranji is almost out of fashion. For example, in Uzbek:

Bolalarni ro'yxatga olib kelamiz, — dedi Tozagul qoziqdan paranjisini olib, boshiga yopina turib. [H. G'ulom, Mash'al].

Zaynab yosh, hali paranji yopinishga ulgurganicha yo'q edi. [H. Olimjon, Zaynab va Omon].

Boyning xotini aravadan tushib, uyga kirib, paranji-chachvonini otib tashlab, ko'zini yoshlabdi. [Luqmoni Hakim].

A burqa or a burka is a wrapping external piece of clothing worn by a few Muslim ladies which completely covers the body and the face. The Arab version of the burqa is called the boshiya and is typically black. It is also known as a chadaree, chaadar, or paranja in Central Asia and Afghanistan.

REFERENCES:

- 1.Umurova, K. (2022). Linguacultural Features of Weddings In Uzbekistan And United Kingdom. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 26(26).
- 2.Umurova, K. (2017). DEPICTION OF YOUTH PROBLEMS IN AMERICAN SHORT STORIES OF THE XX CENTURY. Научная дискуссия: инновации в современном мире, (12), 63-68.
- 3.Ahrorovna, N. N. (2023, May). Antroponimlarning lingvokulturologik tahlili. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, pp. 69-71
- 4.Ahrorovna, N. N. (2023). Analyses of Anthroponyms in the Novel “The Godfather”. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 523-526.

UO'K 808.3

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI SOHA TERMINLARINING UYALI TASNIFLARI VA SEMANTIK MAYDONI

F.S.Vaxidova, katta o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. O'zbek va ingliz tillaridagi turistik terminshunoslikning tushunchali tizimi o'rjanilib chiqilgan. Har ikkala tilda turizm sohasi terminshunosligi uning ko'p sonli sohalari ishlataladigan tushunchalar tizimini aks ettirishi tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: termin, makro va mikro maydon, tasnif, tizim, turistik termin.

Аннотация. Изучена понятийная система туристской терминологии в узбекском и английском языках. Анализируется, что терминология сферы туризма в обоих языках отражает систему понятий, используемую большим количеством ее отраслей.

Ключевые слова: термин, макро и микрорайон, классификация, система, туристский термин.

Abstract. The conceptual system of tourist terminology in the Uzbek and English languages has been studied. It is analyzed that the terminology of the tourism sector in both languages reflects the system of concepts used by a large number of its industries.

Key words: term, macro and micro district, classification, system, tourist term.

Terminshunoslik, xususan, turizm terminshunosligi bu yaxlit tizimni shakllantirayotgan o'zaro bog'langan terminlar majmuasi hisoblanadi. Biroq uning tizim xususiyatlari ochiq ifodalanmagan va ularni aniqlash uchun terminotizimning mantiqiy-tushunchali tahliliga murojaat qilish kerak.Terminshunoslik haqida gapirganda, tilshunoslar anchadan beri dastlabki mantiqiy-tushunchali tahlilga ehtiyoj borligini qayd etishadi: "... terminshunoslikning tartibga solinish jarayoni odatda ikki

bosqichga bo'linadi: 1) keyinchalik foydalaniladigan tushunchalar tizimini tartibga solingen terminshunoslikning ma'nolar tizimining yasalishini aniqlash; 2) tartibga solingen terminlar tizimini ishlab chiqish.

Bunda tartibga solingen terminshunoslikning sifati aynan ishning birinchi bosqichi sifati bilan belgilanadi". Mazkur mulohazalar terminlarni aniqlashda mantiqiy-konseptual tahlil qilish tushunchalarni tizimlashtirish mazmunini tashkil etadi, degan fikrga mos keladi.Terminotizimning mantiqiy-konseptual modellashtirilishi har qanday tizimning universal tuzilmaviy xususiyatlariga asoslanadi. Tizimni bayon qilish: 1)tizimning elementar birlıkları;2)elementar birlıklar sınıfı; 3)elementlarning uyg'unlashuv qonunlarini bayon qilish demakdir.

Bundan kelib chiqadiki, dastlabki mantiqiy-konseptual tahlil: 1)maxsus tushunchalarning dastlabki sonini belgilash; 2)maxsus tushunchalarning kategorial sinflarini aniqlash; 3)maxsus tushunchalar munosabatining xarakterini aniqlashni taqozo etadi. Shunday qilib, terminotizimning kategorial tahlili konseptual munosabatlar tahlili bilan bir qatorda mantiqiy-konseptual tahlilning majburiy bosqichi hisoblanadi.Maxsus tushunchalar sınıfı konseptual-terminologik maydon (KTM)ni tashkil etadi va terminshunoslik tizimi konseptual tuzilishining muhim struktur qismlari hisoblanadi. S.D.Shelov mazkur mavzuda aniq va nazariy ma'lumotlarni keltirib, KTMni "muayyan terminni konseptual identifikasiya qilish, tushunchalarni identifikasiya qilishda ushbu terminning zarurligi, shuningdek, bu termin bilan ifodalangan tushunchalar munosabatini aniqlash uchun kerak bo'lgan mazkur soha tushunchalarining to'plamidir", deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, KTM nazariy nuqtayi nazardan eng qiziqarli tuzilmaviy qism hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda biz KTMning yuqorida keltirilgan ta'rifini qo'llab-quvvatlaymiz. Har qanday leksik, semantik maydon kabi KTM yadro va (maydonning barcha qismlari uchun umumiyl tushuncha) periferiyaga egadir.

Turizmdagi har bir soha turistik sohani shakllantiruvchi bir tipli korxonalar guruhi orqali namoyon bo'ladi. Biroq kam sonli KTM "turizm statistikasi"ni o'rganilayotgan terminotizimga qo'shmaslikning imkoni yo'q, chunki turizm tadqiqi statistik ma'lumotlarga asoslangan miqdor ko'rsatkichlarining hisob-kitobi va tahlilini talab etadi. Shuning uchun statistik hisobot muammolari va shu bilan birga unga mos terminshunoslik turizm tadqiqotlarining asosiy mavzusi hisoblanadi.

KTMning "turistik industriya" tarkibiga kiruvchi mikromaydonlarini taqqoslash o'zbek va ingliz terminshunosligiga xos jihatni aniqlashga imkon beradi. KTMda asosiy hissani "turizmni tashkil etish", "mehmonnavozlik industriyası" va "sayohatchi tashish" kabi mikromaydonlar terminlari egallashi ham tasodifiy emas.

Birinchidan, tashkillashtirilgan turizm turlarni tashkil etuvchi va ularni sotuvchi, shuningdek, ekskursiyalarni tayyorlash va o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasalarsiz mavjud bo'lmaydi va bunga binoan turizmni tashkil etish mikromaydonida quyidagi tematik guruhlarni ajratish mumkin:

1) turizmning ishtirokchilari va tashkil etuvchilar: qabul qiluvchi tomon – host, avtoturist – motorist, turoperator – tour operator, riteyler – retailer, turistik xizmatlarni etkazib beruvchi – supplier, turlider – tour leader; 2)turizmning turlari va shakllari: hamma narsa inobatga olingan tur – all-inclusive tour, tursitlarni tashish va joylashtirish – caravanning, madaniyatni o'rganish turizmi – cultural tourism, tanishish turi – familiarization tour, davolanish-sog'lomlashtirish turizmi – health tourism;3) tashkiliy jarayonlar: bronlash – booking, turistik marshrut – itinerary, kutib olish va kuzatish – meet and greet, to'planish joyi – pick-up point, marshrutni o'zgartirish – rerouting, turni bekor qilish – tour cancellation;4) turistik hujjalalar: agent shartnomasi – agency agreement, kupon – travel coupon, yo'l cheki – traveller's cheque, vaucher – voucher;5)turistik mahsulotni sotish, reklama va targ'ib qilish: turistik katalog – travel catalogue, turistik yarmarka – travel fair, sayohat haqida ma'lumot – travelogue, turistik broshyura – tourist brochure.

Ikkinchidan, tarixan shunday bo'lganki, turistik tashrif davomida ziyoratchilar, eng avvalo, tunash joyi bilan ta'minlanishi zarur, chunki tunash uchun joy tanlash ularning muhim ehtiyojlaridan biridir. Shuning uchun "mehmonnavozlik industriyası" mikromaydoni son jihatidan ikkinchi o'rinda bo'lib, quyidagi tematik bloklarni qamrab oladi:

1) joylashtirish vositalari: alohida otel – apart hotel, tijoriy otel – commercial hotel, qo'shilgan xonalar – connecting rooms, flotel –flotel, mehmon uyi – guest house, kurort mehmonxonasi – resort

hotel;

2) mehmonxona tartibi: ro'yxatga olish – check-in, erta etib kelish – early arrival, kech chiqib ketish – late check-out, kelmaslik – po show, xonalarda joylashish ro'yxati – rooming list;

3) mehmonxona xizmatlari: avtomobil yuvish – valet parking, qavatda xizmat ko'rsatish – floor service, bagaj tashish – portage, uyg'otish qo'ng'irog'i – wake up call;

4) joylashtirish tiplari: joylashtirish – accommodation only; joylashtirish va nonushta – bed and breakfast, yarimpansion – half board, ovqatsiz joylashish – European plan, oila rejasi – family plan.

Uchinchidan, turistik sayohatning asosiy bosqichi turistlarni tashish hisoblanadi. turizm ta'rifidan kelib chiqib, turistlarni tashish bo'lmasa, turizm rasman mavjud bo'lmaydi. Turist kategoriyasiga to'g'ri keladigan inson vaqtincha o'zining doimiy yashash joyidan boshqa joy yoki mamlakatga vaqtincha ketishi lozim. Shunday qilib, "transport" mikromaydoni ham turizm sohasi terminotizimining eng muhim komponenti hisoblanib, u quyidagi tematik bloklarga ega:

1) aviatashuvlar: aviatashuvchi – air-carrier, keluvchilar zali – arrival hall, jaylashish taloni – boarding pass, charter parvozi – charter flight, konsolidator – consolidator, mahalliy aviareys – domestic flight;

2) quruqlikdagi tashuvlar:

– avtomobilda: avtopritsepli uy – camper, avtomobilni ijaraga olish – car rental, turistik avtobus – coach, limuzin servis – limousine service;

– temir yo'lda: kruiz poyezdi – cruise train, vagon-restoran – dining car, tunash vagoni – sleeping car;

– suvda tashish: berbout-charter – bareboatcharter, kruiz marshruti – cruiseline, tashqi kayuta – outside cabin.

Biroq, turistik terminlar konseptual tuzilishining yuqorida ko'rsatilgan o'xshashliklariga qaramay, o'zbekcha terminlarning faqatgina 63%ni ingliz tilida to'liq yoki qisman ekvivalentlariga ega, bu KTM elementlarini o'zbek va ingliz tillarida to'liq emas, qisman bir-biriga mos kelishini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Вахидова, Ф. (2022). Ziyorat turistik terminlar o'zlashuvining intralingvistik omillari va tarixiy-etimologik manbalari. центр научных публикаций (buxdu. uz), 18(18).

2.Saidovna, V. F. (2023). Terminological aspects of pilgrimage tourism with an islamic essence. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 610-618.

UO'K 398.22**XALQ DOSTONLARIDA HARAKAT VA HOLATNI BILDIRUVCHI SO'ZLARDAGI
KO'PMA'NOLILIK HODISASI HAQIDA**

X.Xamdamova, dots., PhD, Jizzax politexnika instituti, Jizzax

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining yirik janri hisoblangan dostonlardagi ko'pma'nolilik hodisasining matn semantik qurilishidagi ahamiyati, xususan, fe'l so'z turkumiga oid bir qator so'zlarning polisemiya hodisasi asosida ko'chma ma'no anglatishi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, polisemiya, ko'chma ma'no, semantik qurilish, ko'pma'nolilik, fe'l so'z turkumi.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение явления многозначности в былинах, считающихся основным жанром народного творчества, в смысловом построении текста, в частности, таких вопросах, как переносное значение ряда слов глагола.

Ключевые слова: фольклор, полисемия, переносное значение, семантическая конструкция, полисемия, глагольное словосочетание.

Abstract. This article examines the significance of the phenomenon of polysemy in epics, considered the main genre of folk art, in the semantic construction of the text, in particular, such issues as the figurative meaning of a number of verb words.